

OROL BO'YI XALQLARIDAGI DINIY E'TIQODLAR VA DINIY URF-ODATLARNING O'RGANILISHI VA TADQIQ ETILISHI

Yakupov Aydos Kiyasatdinovich

Tayanch doktorant, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, tasavvuf, Gurganj, vaqf, Ma'mun akademiyasi, Beruniy, Ibn Sino, madras, masjid.

Annotatsiya

Mavorounnahr diyorida butun dunyoga ustoz bo'lgan allomlar chiqqani hech kimga sir emas. Bu maqolada jonubiy Orol bo'yi xalqlaridan yetishib chiqqan tasavvuf ustoz Sulaymon Haddodiy Musoviy haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Shuning bilan birga bu hududlarda ilmga va ilm ahliga bo'lgan yuksak hurmat namunasini ko'rish mumkin.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Bugungi kunda insoniyotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, bunda Orol bo'yida yashab o'tgan buyuk bobolarimizning ham munosib hissasi borligidan g'ururlanamiz.

ASOSIY QISM

Sharq uyg'onish davrining vujudga kelishi, O'rta Osiyo xalqlari tarixida juda ko'plab o'zgarishlarning yuz berishi, o'lkamizning barcha hududlarida bo'lgani singari Janubiy Orol bo'yidan ham dunyo ilm-fan va madaniyat sohasiga o'zining buyuk kashfiyotlari bilan mashhur bo'lgan allomalar ham yetishib chiqdi. Ushbu allomalar tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar va ular tomonidan yaratilgan asarlar butun davlat va jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatti.

Mustaqillik yillaridan boshlab tarixiy, madaniy meroslarimiz otabobolarimiz tomonidan yaratilgan ruxiy boyliklarimizni asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bunga misol qilib Respublika olimlari so'nggi yillarda chet el mutaxassislari bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar yuritayotganligini aytak mubolag'a bo'lmaydi albatta. Bu esa o'z navbatida halqimizning madaniy-ma'rifiy, ruxiy meroslarga juda boy halq yekanligini, tarixining ming yilliklarga tengligini, millat ruhininga badiy yashashini, buyukligining nishonasini ko'rsatadi.

Yozma manbalarda, jonubiy Orol bo'yida o'rta asrlarda o'tgan mashhur shayx avliyolar qatorida Sulaymon Haddodiy Musoviyning borligi ma'lumdur. XIV asrda yashagan Gurganj hokimi Qutlug' Temur 1394-yilda yozilgan Vaqfnomasida quyidagi qatorlar ko'ramiz: «U Payg'ambar avlodi, sayyid, shayxlar shayxi Sulaymon Haddodiy Musoviyga izzat-ikromi sifatida Mizdakxon tepaligida oq xonaqo bino qildirgan, Mizdakxondan (Xujayli tumani) Bog'dodgacha (Qorao'zak tumani) bo'lgan yerlarni, Tulii-Yatqanni hamda uchta anhorni shayxning nomiga vaqf qilib bergan. Bizga ma'lumki, Xo'jayli shahri ikki ming to'rt yuz yildan oshiq tarixga ega bo'lgan qadimdan insoniyat tsivilizatsiyasi rivojida yo'llar bo'yida joylashgan davlat va shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buyuk ipak yo'li asrlar

davomida Sharq va G'arbni bir biriga bog'lab kelgan. Huddi shu yo'l ilm fan taraqqiyotida, millatlararo va mintaqalararo munosabatlarda, madaniy aloqalarda muhim rol o'ynagan. Qutlug' Timur bularga qo'shimcha Xivadagi Vari qishlog'ida katta xanaqoh bino qiladi va uning atrofidagi yerlarni vaqf qilib qo'shib beradi.

Xo'jayli tumanidagi Mizdaxon Janubiy Orol bo'yi xonaqalarida bo'lgan sharq va g'arb mardumlaridan kelgan elchilar, sayyohlar o'zlarining xotirlashida juda yaxshi manbalar yoz'sh qoldirgan. Ularning biri morokashli elchi Ibn Batuta 1333-yili qirolicha To'rabek xonimning taklifi bilan uning qurdirgan xonaqasida bo'lib, katta hurmat-izzatga sazavor bo'lgan, ot va to'n bilan mukofatkangan. Shu jumladan u Najimaddin Kubro xonaqasida bo'lib, uning muddarisi Saifud Din Nihoyatdaba bilan uchrashadi va uning juda yuqori madaniyatli ekanligiga, ilmi shaxs ekanligi haqida yozadi. Elchi Najimaddin Kubro xonasi yonidagi shayx Jaloluddin as-Samarqandiy muddarislik qilgan xonaqada ham bo'ladi va uning o'z zamonasidagi mashhur mudjavir (sufi) ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Xonaqalar faqat erkaklar uchungina emas, balki ayollar uchun ham barpo etiladigan bo'lgan. XIII asrning o'rtalaridagi Damashq shahridagi yigirma xonaqaning to'rttasi ayollarga tegishli bo'lgan. Musulman tasavvuf arxitekturasiga xos xonaqa qurilishining rivojlanishiga ulug' Sohibqiron Amir Temurning katta e'tibor berganligi va ziyorat qilib turganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Masalan, Hindistonga qilgan muvaffaqiyatli yurishidan qaytgan Amir Temurning Qushomon mozorida joylashgan Tuman aka xonaqasida to'xtab o'tgani va u yerda namoz o'qigani Sharafuddin Iezdining ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Sulaymon Haddodiy Musaviyga berilgan vaqf yerlar haqida Qutlug' Temur davrida tuzilgan hujjatlarning XVII asrding o'rtalarida yana gap bo'lgani tarixiy manbalardan ma'lumki, hijriy 1070 (1659-1660)-yili Sulaymon Hadadiyning avlodlaridan biri, shu vaqtdagi podshoh Abulg'ozzi Bahodirxondan, vaqf yerlarni qaytarib olish haqida talab qilgan. Abulg'ozzi uni aniqlash uchun Qutlug' Temurning 1349-yili bergan "vaqfnomasi"ni tekshirib ko'rgan va uni ko'chirib olishni mulla Taxir ibn mulla Oshiq Hivakiyga topshirgan.

Arablarning dastlabki noibi Mizdahxonda (Xo'jayli) o'tirg'izilib, keyin u Gurganjga (Eski Urganch) o'tadi. Ular O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiga va madaniyatiga o'rni to'lmas darajada ziyon yetkizgan. Ko'plagan shaharlar, arxitektura namunalari vayron qilingan. Savdo yo'llarida joylashkan Qiyot (Beruniy), Qabat qal'a (Ellikqala), Mizdahxon (Xo'jayli) kabi shaharlar harobaxonaga aylangan. Xalqaro savdo uzilishga uchragan. Eski Xorazm yozuvini bilgan savodli odamlar, olimlar yo'q qilinib, darsliklar bilan ilmiy kitoblar, adabiyotlar bilan shajaralar yoqib yuborilgan. Albatta, o'z ta'limotlarini egallagan yerlariga singdirish borasida olib brogan arablarning dastlabki harakatlari birdaniga o'z natijalarini bermagan. Yangi ta'limotni til uchida qabul qilgan mahalliy xalq o'zlarining eski ruhiy va madaniy urf-odatlarini, dasturlarini turmushda foydalanish davom etmoqda. Bu hodisa tarixchi olimlarning aniqlashi bo'yicha 780-yili Muqanna isyonining yengilishiga qadar davom etkan. Shunaqa qilib VII asrning oxiri IX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari eng qiyin davrdan tarixning yangi bosqichiga o'tadi.

Shu davrdagi Janubiy Orol bo'yi Xorazm davlatidagi vaziyatga keladigan bo'lsak, o'tish davri biroz shubhalanishga tushdi. Arablar o'rinlardagi mahalliy dinastiyalarni biryo'la yo'q qilib yubormasdan, ularning yonlariga o'zlarining noiblarini o'tirg'izgan edi. Shuning sababidan Gurganjdagi arab noibi bilan Qiyotda o'tirgan xorazmshoxlar sulolasi vakillari orasida, vaqti-vaqti bilan tushunmovchilik, urishlar kelib chiqqan. 995-yil Gurganj podshosi Abdul Abbos Mamun Ibn Muhammad shimol va janub bo'lib bo'linib boshqarilib turilgan yoki xalqni birlashtirib va unga Xorazmshox unvoni beriladi. Shu tarzda uch yuz yilga yaqin eski va yangi ta'limot orasida bo'lgan o'z-aro kurash payoniga yetib, janubiy Orol bo'yida islom dini to'liq o'rnadi. Mamun va uning bolasi Aliy (997-999) davrlarida Xorazm mustaqil qudratli mamlakatga aylanadi.

Aliy Mamunning ukasi davrida (999-1017) Xorazm faqat siyosiy va harbiy tarafdin rivojlanib qolmay,

ulkan madaniy markazga aylanadi. Urganchning ko'rki bo'lgan Ma'mun akademiyasi barpo qilinib, unga o'sha davrning ilmi va san'atining namoyandalari Ibn Sino va Al-Beruniylar yig'iladi. Bu olimlar Qiyot, Jampiq qal'a, Mizdahxon, Gurganj shaharlarida bo'lib, o'lmas mehnatlar qoldirgan. Masalan Abu Rayxon Beruniy mehnatlari Shimol va Evropa xalqlari matematikasiga asos bo'ldi. Astronomiya va matematika bo'yicha traktatlari uning donishmanligini va bilimining chuqur ekanliginibildirib qolmay, Janubiy Orol bo'yi, umuman Markaziy Osiyo ilmining yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'rinboev A., Bo'riev O. G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. – T., 1991.
2. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T., 1965. – B. 64. 25
3. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. – T., 1993.
4. Hofiz Abdu. Geografiya O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi, № 5361 (fors tilida).
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Tauer nashri. – Praga, 1937; 1956.
6. Ugli A. Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 24 (76). – С. 32-33.
7. Arslonov Z., Ergashev H. ALIKHANTORA SOGUNIY'S VIEWS ON POLITICAL GOVERNANCE IN EAST TURKESTAN //Студенческий вестник. – 2020. – №. 32-2. – С. 84-85.
8. Zokirjonugli Z. A. Approaches to studying the scientific heritage of Alikhantora Soguni //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 1
9. Zokirjonugli Z. A. APPROACHES TO STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALIKHANTORA SOGUNI.
10. Arslonov Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости, 2020. – №. 24-2. – С. 9-11.
11. Maxsudov D. Развитие исламоведения (корановедения) в Узбекистане: история и современность //Вестник КазНУ, Серия Религиоведение. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
12. Maxsudov D. Razvitie islamovedeniya (koranovedeniya) v Uzbekistane: istoriya i sovremennost' //Chabarshy. Dintanu serijasy. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
13. Maxsudov D. The development of transmitted and rational tafsirs //The Light of Islam. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 9.
14. Makhsudov D. Muslim world scientists of the temurids period //The Light of Islam. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. – С. 4.
15. Makhsudov D. Manuscripts of abul barakat al-nasafi's works on furu'Al-Fiqh //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2023. – Т. 12. – №. 1. – С. 31-34.
16. Mahsudov D. IX-XV asrlarda Movarounnaxrda ёзилган тафсирларнинг хусусиятлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 14. – С. 311-314.
17. Makhsudov D. R. Mufassirs of Mawarannahr //ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80). – 2019. – С. 539-543.
18. Makhsudov D. R. МУФАССИРЫ МАВЕРАННАХРА В СРЕДНИХ ВЕКАХ //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 539-543.

19. Makhsudov D. A GENIUS OF THE WORLD //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 5. – C. 544-548.
20. Islamov Z. Codicological Analysis of Manuscripts of “Mukaddamatu-l-Adab” of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World //The Light of Islam. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 30-36.
21. Isломov Z. International Islamic Academy of Uzbekistan—a result of the reforms worth to the centuries //The Light of Islam. – 2018. – T. 1. – №. 1.
22. Isломov Z. The role of the international Islamic academy of Uzbekistan in the development of Islamic studies //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 1.
23. Isломov Z. Source studies analysis of manuscripts of “muqaddimatu-ladab” in foreign archival funds //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 41.
24. Islamov Z. et al. WRITING DOWN OF HADITHS IN THE VII-VIII CENTURIES: APPROACHES AND METHODS //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 5536-5545.